

**UDK 37.012.1 M 66**

**Xazirova Marxaboxon Raxmidinovna**

**Andijon viloyati Asaka tumani 3-son kasb-hunar maktabi tarix fani  
o'qituvchisi**

**Xoldarova Elmiraxon Tursunboyevna**

**Andijon viloyati Asaka tumani 3-son kasb-hunar maktabi tarix fani  
o'qituvchisi**

**Nishonova Nargiza Anvarjonovna**

**Andijon viloyati Asaka tumani 3-son kasb-hunar maktabi kimyo-  
biologiya fani o'qituvchisi**

**Abdullayev Dilshodbek No'monovich**

**Andijon viloyati Asaka tumani 3-son kasb-hunar maktabi ishlab  
chiqarish ta'limi ustasi**

## **GLOBALASHUVNING YANGI O'ZBEKİSTONDA FAN VA**

### **TA'LIMNING RIVOJIGA TA'SIRI**

**Rezyume:** Jahon tajribasiga ko'ra, madaniyat sohasidagi o'zgarishlar va yangilanishlarni o'rganishda har bir mamlakatning rivojlanish jarayonlariga xos bo'lgan umuminsoniy qonuniyatları va ma'naviy hayotining milliy xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Ushbu maqolada so'nggi yillarda globalashuv sharoitida O'zbekiston madaniyatini rivojlantirish jarayoni haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniyat, madaniy rivojlanish, yangi O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi, milliy qadriyatlar.

**Хазирова Мархабохон Рахмидиновна**

**Учитель истории профессионального училища № 3 Асакинского района Андижанской области**  
**Холдарова Эльмирахон Турсунбаевна**

*Учитель истории профессионального училища № 3 Асакинского района Андижанской области  
Нисanova Наргиза Анваржоновна*

*Учитель химии и биологии профессиональной школы № 3  
Асакинского района Андижанской области  
Абдуллаев Дилишодбек Номанович*

*Мастер производственного обучения № 3 Асакинского района  
Андижанской области*

## **ВЛИЯНИЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ НА РАЗВИТИЕ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

**Резюме:** Согласно мировому опыту при изучении трансформаций и обновления в сфере культуры важно учитывать общечеловеческие закономерности и национальные особенности духовной жизни каждой страны, характерные для процессов ее развития.

В данной статье изложены сведения о процессе развития культуры Узбекистана в последние годы в условиях глобализации.

**Ключевые слова:** культура, культурное развитие, стратегия развития Нового Узбекистана, национальные ценности.

*Khazirova Marhabokhon Rachmidinovna  
Teacher of history of vocational school No. 3 of the Asakinsky district of  
the Andijan region*

*Holdarova Elmiraikhon Tursunbayevna  
Teacher of history of vocational school No. 3 of the Asakinsky district of  
the Andijan region*

*Nisanova Nargiza Anvarzhonovna  
Teacher of chemistry and biology at the vocational school No. 3 of the  
Asakinsky district of the Andijan region  
Abdullaev Dilshodbek Nomanovich*

*Master of industrial training No. 3 of the Asakinsky district of the  
Andijan region*

## **THE IMPACT OF GLOBALIZATION ON THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION IN THE NEW UZBEKISTAN**

**Resume:** According to world experience, when studying transformations and renewal in the field of culture, it is important to take into account universal human patterns and national peculiarities of the spiritual life of each country, characteristic of the processes of its development.

This article provides information about the process of development of the culture of Uzbekistan in recent years in the context of globalization.

**Keywords:** culture, cultural development, development strategy of the New Uzbekistan, national values.

**Dolzarblik.** Bugungi kunda ta'lim tizimi va uning ajralmas atributi bo'lgan fan ham globallashuvda muhim o'rinnegallab bormoqda[1].

Globallashuv holati kuchayib borayotgan hozirgi davrda ilm-fan va innovasiyalarning ahamiyati yanada ortmoqda. Qadimdan jahon tsivilizasiyasi markazlaridan biri bo'lib kelgan yurtimizning ilm-fan va ma'rifiy salohiyatini yuksaltirishga bugun ulkan e'tibor qaratilmoqda. Bugun Markaziy Osiyodagi ilmiy salohiyatning yarmidan ko'pi O'zbekiston hissasiga to'g'ri keladi.

Globallashuv jarayoni keyingi paytlarda shu sohada ish olib borayotgan mutaxassislar tomonidan, insoniyatning asosiy qismini moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy — siyosiy va madaniy aloqalarini yagona, ilg'or va yangi telekommunikasiya hamda axborot texnologiyalari asosida boshqarishga o'tish deb tushuntirmoqdalar. Globallashuv fenomenining asosiy omili sifatida esa inson bilish jarayoning mislsiz rivojlanishi ya'ni, ilmiy-texnikaviy bilimlarning yuksalishi va buning natijasida insonning er yuzining hohlagan nuqtasidagi

ob'ektlarni yoki yuz berayotgan xodisalarni individual ravishda bilib olish imkoniyatlarining paydo bo'lishi deb tushuntirmoqdalar. Globallashuv murakkab integrasjion jarayonlarning birlashuvi bo'lib, u borgan sari insoniyat jamiyatining barcha sohalarini qamrab olayveradi. Globallashuv jarayonning o'zi esa ob'ektiv bo'lib, insoniyat tsivilizasiyasining tarixiy muayyan taraqqiyotining natijasidir.

**Maqsad.** Globallashuvning yangi o'zbekistonda fan va ta'limning rivojiga ta'sirini o'rghanishdan iborat.

**Muhokama.** An'anaviy ta'lim va an'anaviy oliy o'quv yurtlari bugungi dunyodagi mavjud qashshoqlik va boylik, ekologik muammolar, xalqaro jinoyatchilik, kishilarning bir-biridan begonalashuvi kabi global muammolarni yakka o'zi hal qila olmaydi[2].

Bugungi kunda ta'lim tizimi va uning ajralmas atributi bo'lган fan ham globallashuvda muhim o'rinnegallab bormoqda. Oliy ta'lim global tarmoqning bir qismiga aylanib qolishi o'z navbatida o'zining territoriyasida faoliyat yuritadigan va Markaziy o'rinni tashkil etadigan an'anaviy universitetlarning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Haqiqatda O'zbekiston tajribasi ham uzuluksiz ta'lim tizimini joriy etar ekan insonning butun hayotida ta'lim olishi haqidagi g'oyalarni ilgari surgan. Uzuluksiz ta'limning mohiyati, globallashuv davri muttasil o'zgarishlari insonni dunyoga munosabatini har doim rivojlanib borishini toqazo qiladi. Bu hodisa barchaga birdek talluqlidir, ya'ni mutaxassislikka ega bo'lib ishlayotgan yoshlarga ham, katta yoshdagilarga ham tegishlidir. Yaqingacha, yosh mutaxassis tugallangan bilimga ega deb xisoblansa, hozirda oliy ta'limda ilmiy tadqiqotlar olib bormagan o'qituvchi, talabaning ilmiy ishlariga rahbarlik qila olmaydi deb topildi. Shuningdek, katta yoshli professor-o'qituvchi, avval o'zining turmush tarziga xos faqat metodist o'qituvchi sifatida ish olib boruvchi, ilmiy faoliyati yakunlangan deb xisoblansa, hozirda bu qarashlar eskirib, ularning zamon talablari asosida faol xatti-xarakat olib borayotganligi hayot haqiqatiga aylandi. Shu tariqa uzluksiz ta'lim oliy maktab hayotiga ham

o'zgarishlar olib kirdi. Lekin barcha o'zgarishlarning asosida universitetlarning bosh g'oyasi-inson hayotni, uning turmush tarzini yaxshilashning bazasi bo'lib xizmat qilish egallashi lozim.

Ilmiy – texnikaviy sohadagi innovation jarayonlar tezligi juda yuqori bo'lganligi, ijtimoiy o'zgarishlarning jadallahushi oqibatida, hozirda ilmiy tadqiqot natijalarini bir necha yilga cho'zib bo'lmaydi. Shuning uchun berilgan tadqiqot sohasida faoliyat yuritayotgan universitetlar tajribasini qo'llash va bashqa shu sohadagi bilmlar bazasidan foydalanish toqazo qilinadi. Bu esa o'z-o'zidan yangi ilmiy-tadqiqot dasturini yaratishda o'zaro dialog uchun ehtiyoj tug'diradi. Ayni paytda global bozorning mavjudligi va kattaroq mablag'lar jamg'arish maqsadida uchinchi dunyo mamlakatlari xalqlarin kuchidan noqonuniy foydalanish, arzon tabiiy resurlar uchun kurash, noqonuniy migrasiya oqibatida dunyo mamlakatlari boy va qashshoq regionlarga aralib ketdi.

**Xulosa.** Ilmu ma'rifatga intilib yashash xalqimiz mentalitetining ajralmas qismi. Oqqan Daryo – oqaveradi. Ilm-fan va innovasiyaning hayotimizdag'i ahamiyati oshsa, turmushimiz obod va farovon, mustaqilligimiz yanada mustahkam bo'ladi. Zotan, farzandlari ilmu ma'rifatli xalqning har bir lahzasi bunyodkorlikka, ezgulikka yo'g'riladi, bunday xalqni hech qanday kuch to'g'ri yo'ldan chalg'itolmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Рузикулова, М. Ю. Глобаллашув даврда фан ва таълимнинг долзарб масалалари / М. Ю. Рузикулова, З. Т. Рауфжонова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 44-47. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/38939/>.

2. Животовская И. Г. Глобализация и образование: институциональный и экономический аспекты Глобализация и образование Сб. обзоров Отв. Ред. Зарецкая С. Л. – М.: ИНИОН, 2001. – С. 21–38.